

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 59 619,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 8,8 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2026-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,5 % ga yetdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2026-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025-yil	2026-yil	
I. YAHM, jami	50 447,6	59 619,7	108,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	49 587,2	58 585,0	108,7
mahsulotlarga sof soliqlar	860,4	1 034,7	112,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	49 587,2	58 585,0	108,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 219,1	16 062,5	104,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	16 482,7	18 808,5	111,1
sanoat	13 437,4	15 032,7	109,2
qurilish	3 045,3	3 775,8	119,3
xizmatlar	19 885,4	23 714,0	109,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 536,8	9 077,4	113,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 096,3	3 942,3	117,5
boshqa xizmat tarmoqlari	9 252,3	10 694,3	104,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 872,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,0 % ga yuqoridir.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2025-yil	2026-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26,7	27,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	33,2	32,1
sanoat	27,1	25,7
qurilish	6,1	6,4
xizmatlar	40,1	40,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,2	15,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	6,7
boshqa xizmat tarmoqlari	18,7	18,3

2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,4 % ni, sanoat tarmog'i 25,7 % ni, qurilish 6,4 % ni va xizmatlar sohasi 40,5 % ni tashkil o'ldi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2025-yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2025-yilning yanvar-iyunida – 2,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2025-yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,8 f.p. (2025-yilning yanvar-iyunida – 2,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga teng bo'ldi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,4 %), sanoatda – 109,2 % (25,7 %), qurilishda – 119,3 % (6,4 %), xizmatlar sohasida – 109,6 % ni (40,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,1 % (15,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,5 % (6,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (18,3 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025-y.

2026- y.



6,4 %

YAHM

8,8 %



3,8 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,5 %



7,1 %

Sanoat

9,2 %



12,7 %

Qurilish

19,3 %




6,7 %

Xizmatlar

9,6 %

2026-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 116,3 % va xizmatlarda– 108,8 % qayd etildi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 40 900,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2025-yilning yanvar-iyun oylarida – 35 023,0 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 69,8 % ni (2025-yilning yanvar-iyun oylarida – 70,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

